



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN
VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI
O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**

**“ADABIY TA’LIM METODOLOGIYASI:
XALQARO TAJRIBA VA ILMIY HAMKORLIK”
mavzusidagi professor Hamidulla Boltaboyev
tavalludining 70 yilligiga bag‘ishlangan
xalqaro ilmiy-nazariy anjuman**

MATERIALLARI

1-kitob

**Toshkent
2024-yil 30-sentabr**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM,
FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI
Michigan davlat universiteti (AQSH)
Anqara Boshkent universiteti Alisher Navoiy tadqiqot markazi (Turkiya)
Al-Farobiy nomidagi Qozoq milliy universiteti
Ozarbayjon Milliy ilmlar akademiyasi Nizomiy nomidagi Adabiyot instituti
O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi
Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi**

**“ADABIY TA’LIM METODOLOGIYASI: XALQARO
TAJRIBA VA ILMIY HAMKORLIK”
mavzusidagi Professor Hamidulla Boltaboyev
tavalludining 70 yilligiga bag‘ishlangan
xalqaro ilmiy-nazariy anjuman**

MATERIALLARI

1-kitob

**Toshkent
“MASHHUR PRESS”
2024**

Тахт ѳлтирди Сўйинбийке апанды,
Дўраныңның бери эрман қарақалпақ», –

деган сатрлар Нўғайнинг инқирозга юз тутиши жараёнидаги аччиқ ҳақиқатдир.

Хулоса қилиб айтганда, “Едиге”, “Ер Шора” сингари қорақалпоқ достонларида Олтин Ўрда, унинг инқироzi ва Нўғай давридаги воқеалар жировларимизнинг юксак импровизаторлик истеъдоди натижасида қаҳрамонлик эпос атрибутлари асосида тасвирланган. Шу боис улар узок ўтмиш воқеалари ҳақида халқимизнинг бир неча асрлик дунёни идрок қилишидан далолат берувчи қимматли асарлар ҳисобланади.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Айымбетов Қ., 1986. Халық даналығы. – Нөкис: Қарақалпақстан. – 492 б.
2. Валиханов Ч.Ч., 1904. Сочинения / Зап.РГО. Т-XXIX, СПб. – С. 224.
3. Греков Б.Д., Якубовский А.Ю., 1998. Золотая орда и её падение. – Москва. – С. 240.
4. Жирмунский В.М., 1974. Тюркский героический эпос. – Ленинград. – С. 224.
5. Мақсетов Қ, Тəжимуратов А., 1978. Қарақалпақ фольклоры. – Нөкис. – 364 б.
6. Низаматдинов Ж.М., 2000. Каракалпакский народный дастан «ЕрШора» (историко-типологическое сравнение). Автореф. дисс. уч. степ. кан. фил. наук. – Нукус. – 11 б.
7. Сағитов И., 1986. Қарақалпақ халқының қаҳарманлық эпосы. – Нөкис: Қарақалпақстан. – 348 б

SADRIDDIN AYNIYNING ILMIY TALQINLARI (ABU ALI IBN SINO FAOLIYATI MISOLIDA)

Zilola AMONOVA Qodirovna,
filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent
Buxoro davlat universiteti
Maftuna TO‘RAYEVA Tolibjon qizi,
Buxoro davlat universiteti talabasi

Annotatsiya

Maqolada o‘zbek va tojik adabiyotining yorqin vakili Sadriddin Ayniyning serqirra faoliyati va uning noyob iste’dodi haqida fikr yuritilgan. Ayniqsa, ulug‘ mutafakkirning zakiiy olimlik faoliyati tahlilga tortiladi. Ayniyning iste’dodli olim ekanligiga uning Abu Ali ibn Sino faoliyatiga doir yaratgan “Shayxu-r-raiis Abu Ali ibn Sino” maqolalarining ilmiy tadqiqi orqali baho beriladi. Ayniy bu kabi maqolalar bilan birga, “Firdavsiy va uning “Shohnoma”si haqida”, “Shayx Muslihiddin Sa’diy”, “Kamol Xo‘jandiy”, “Alisher Navoiy” kabi adabiyotshunoslik uchun muhim bo‘lgan tadqiqotlarni ham yaratgan. Mazkur maqolada olimning Ibn Sino bilan bog‘liq ishlari tahlilga tortiladi. Ayniyning Ibn Sinoga bag‘ishlangan tadqiqoti “Shayxu-r-raiis Abu Ali ibn Sino” deb nomlangan bo‘lib, bunda olimning fors-tojik tilida yozilgan ba’zi asarlaridan parchalar ham keltirilgan. Olim dastlab Ibn Sinoning Yevropada Avitsena nomi bilan shuhrat topganligini, to‘liq ismi Husayn binni Abdulloh binni Sino ekanligini, Abu Ali ibn Sino esa uning kuniyasi, Shayhur rais esa ilmiy laqabi ekanligiga urg‘u beradi. Ayniy olimning ilmiy va adabiy faoliyatini yoritish bilan birga, Ibn Sino yashagan tarixiy davr va muhitga ham alohida e’tibor qaratadi. Sino hayoti haqida gapirishdan oldin u tug‘ilib, faoliyat boshlagan podshohlik – Somoniylar haqida ma’lumot beradi. Hatto, mazkur podshohlikning yuzaga kelish tarixini ham keltiradi. Ayniy somoniylar davrining so‘nggi olimlaridan bo‘lgan ibn Sinoning tarjimayi holi bilan o‘sha davrning so‘nggi shoiri

Firdavsiyning tarjimayi holi bir-biriga nihoyatda o'xshashligini misollar asosida isbotlashga harakat qilgan. Shuningdek, Ayniy ibn Sinoning 57 yil umr ko'rganligini qayd etib, uning faoliyat davrini 3 guruhga ajratadi: 1) 18 yili ilmu tahsilga sarf bo'lgan; 2) 2 yili otasi vafotining tashvishi va Samoniylar saroyida siyosat bilan shug'ullangan; 3) 37 yili sarson-sargardonlikda bo'lishi bilan birga asarlar yozishga sarflangan. Ayniy tarixiy manbalar asosida shu kabi aniq ma'lumotlarni bergan.

Kalit so'zlar: *shayhu-r-raisa, somoniylar, Buxoro, Qomusul a'lam, Abu Ubayd Faqih Jurjoni, olim, tahlil, talqin*

SCIENTIFIC INTERPRETATIONS OF SADRIDDIN AINI (ON THE EXAMPLE OF AVICENNA'S CO-CREATION)

Abstract

The article discusses the brilliant work of Sadriiddin Aini, a bright representative of Uzbek and Tajik literature, and his unique talent. In particular, the intellectual activity of the great thinker is analyzed. The fact that Aini is a talented scientist can be assessed through the scientific research of his articles "Shaykhul Rais Abu Ali ibn Sina" about the work of Abu Ali ibn Sina. Along with such articles, Ayni also created important studies for literary studies, such as "About Firdawsi and his Shahnoma", "Shaykh Muslihiddin Sa'di", "Kamal Khojandi", "Alisher Navoi". In this article, we analyze Ibn Sina's works. Ayni's research on Ibn Sina is called "Shaykhul Rais Abu Ali ibn Sina", which includes excerpts from some of the scientist's works written in the Persian-Tajik language. The scholar emphasizes that Ibn Sina first became famous in Europe under the name of Avicenna, his full name was Husayn bin Abdullah bin Sina, Abu Ali bin Sina was his surname, and Shayhur Rais was his academic nickname. Ayniy does not limit himself to covering the scientific and literary activities of this scientist, but also pays special attention to the historical period and environment in which Ibn Sina lived. Before talking about the life of Sina, he gives information about the kingdom in which he was born and began to work - the Somonites. It even mentions the history of the emergence of this kingdom. Aini tried to prove on the basis of examples that the biography of ibn Sina, who was one of the last scholars of the Samanid era, and the biography of Firdawsi, who was the last poet of that era, are very similar to each other. Ayni ibn Sina lived for 57 years and divides his period of activity into 3 groups: 1) 18 years were spent on education; 2) In 2 years, he was concerned about his father's death and engaged in politics in the Samonite palace; 3) He spent 37 years in wandering and writing works. Aini gave such accurate information based on historical sources.

Keywords: *Shayhu-r-raisa, Samanids, Bukhara, Qamusul Alam, Abu Ubaid Faqih Jurjani, scientist, analysis, interpretation*

НАУЧНЫЕ ИНТЕРПРЕТАЦИИ САДРИДДИНА АЙНИ (НА ПРИМЕРЕ ТВОРЧЕСТВА АВИЦЕННЫ)

Аннотация

В статье рассматривается блестящее творчество Садриддина Айни, яркого представителя узбекской и таджикской литературы, его уникальный талант. В частности, анализируется интеллектуальная деятельность великого мыслителя. О том, что Айни является талантливым учёным, можно судить по научному исследованию его статьи «Шейх ал-Раис Абу Али ибн Сина» о творчестве Абу Али ибн Сины. Наряду с такими статьями Айни также создал важные для литературоведения исследования, такие как «О Фирдоуси и его Шахнаме», «Шейх Муслихиддин Саади», «Камал Ходжанди», «Алишер

Навои». В этой статье мы анализируем произведения Ибн Сины. Исследование Айни об Ибн Сине называется «Шейх ал-раис Абу Али ибн Сина» и включает в себя отрывки из некоторых трудов учёного, написанных на персидско-таджикском языке. Ученый подчеркивает, что Ибн Сина впервые прославился в Европе под именем Авиценны, его полное имя было Хусейн бин Абдулла бин Сина, фамилия Абу Али бин Сина, а академический прозвище Шайх ал-раис. Айни не ограничивается освещением научной и литературной деятельности этого ученого, но также уделяет особое внимание историческому периоду и среде, в которой жил Ибн Сина. Прежде чем рассказать о жизни Сины, он дает сведения о царстве, в котором он родился и начал работать в династии саманидов. Там даже упоминается история возникновения этого царства. Айни пытался на примерах доказать, что биография ибн Сины, одного из последних учёных эпохи Саманидов, и биография Фирдоуси, последнего поэта той эпохи, очень похожи друг на друга. Отмечая, что Айни ибн Сина прожил 57 лет, он делит период его деятельности на 3 группы: 1) 18 лет было потрачено на образование; 2) в 2 года он был обеспокоен смертью отца и занимался политикой в самонитском дворце; 3) он провел 37 лет в странствиях и написании произведений. Он дал столь точную информацию, основанную на исторических источниках.

Ключевые слова: шейх ал-раис, саманиды, Бухара, «Большой свод», Абу Убайд Факих Джурджани, учёный, анализ, интерпретация

O‘zbek va tojik adabiyotining zabardast vakili, nazm va nasrda birdek ijod etgan, buyuk mutafakkir Sadriddin Ayniyning Sharq adabiyoti tarixida o‘z o‘rni mavjud. U o‘zining serqirra faoliyati davomida adabiyotshunos, tilshunoslik, tarjimon, matnshunos, shoir va yozuvchi-adib sifatida shuhrat qozondi. Shu nuqtayi nazardan olim I.Haqqulov u haqida: “Alloh ustod Ayniyga bir necha yaxshi olim, sermahsul yozuvchiga yetadigan iste’dod bergandi. Ayniy yaratgan ilmiy tadqiqotlarining hajmiga teng asarlar yozish, ehtimolki ikki-uch zahmatkash olimning qo‘lidan kelar. Ammo bu asarlarning Ayniy tadqiqotlari sifat va saviyasi bilan bellasha olishiga hech kim kafolat berolmasa kerak, deb o‘ylayman. Ayniyning “Sudxo‘rning o‘limi”, “Esdaliklar” kitobi manaman degan ulug‘ bir iste’dodning shon-shuhratini jahonga taratish va muallifiga badiiy haykal o‘laroq boqiy yashash qudratiga ega, desa aslo xato bo‘lmaydi”, deganda mutlaqo haq edi. Qolaversa, uning nodir ijodi qardosh qirg‘iz xalqining buyuk yozuvchisi Chingiz Aytmatov tomonidan ham keng e’tirof etilgan. U o‘zining “Ikki san’atkor” nomli maqolasida “Men Muxtor Avezov bilan Sadriddin Ayniyni doimo hurmat qilishimni, ularni sevishimni kitobxonlar oldida e’tirof etmoqchiman. Ularning har ikkisi ham nodir hodisadir”, – deb yozgan edi.

Ayniy ijodkor sifatida yuksak iste’dod sohibi bo‘lishi bilan birga, o‘ta mahoratli, daqiq olim ham edi. Shoir, nosir bo‘lish bilan birga, adabiyot va tarixga oid ko‘pgina ilmiy asarlar yaratgan zabardast olim Sadriddin Ayniy ilmiy faoliyati davomida Alisher Navoiy ijodiy merosiga alohida diqqat va e’tibor bilan qaragan.

Olimning bu borgan faoliyati ikki yo‘nalishda yuzaga chiqdi:

1. Matnshunoslik doirasidagi faoliyati.
2. Tanqidchilik faoliyati.

Sadriddin Ayniy ilmiy-ijodiy faoliyatida uning matnshunoslik borasidagi xizmati muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. U buyuk mutafakkir shoir Alisher Navoiy “Xamsa”sining qisqartirilgan tanqidiy matnini tayyorlashdek ulkan ishga qo‘l uradi. Mazkur nashrda olim Alisher Navoiy “Xamsa”sining ayrim o‘rinlarini nasriy shaklda bayon etadi va sahifalar ostida sharhlar hamda asarning she’riy qismlaridan parchalar keltiradi. Mazkur nashr 1939-yilda tayyorlangan va 1940-yili lotin alifbosida chop etilgan bo‘lib, 1947-yilda esa Solih Muttalibov, Sobirjon Ibrohimov va

Porso Shamsiyev kabi olimlar tomonidan asarning nasriy qismlari va sahifalar ostidagi sharhlar qisqartirilgan va ixchamlashtirilgan holda krill alifbosida bosilib chiqqan [Ayniy, 1949: 432].

Sadriddin Ayniy yaratgan qisqartma nashrda “Xamsa” mazmuniy butunligini to‘la saqlab qoladi va xalqqa tushunarli va soddaroq shakldagi ifodaga ega. Mazkur shakl bir qarashda xalq dostonlarining ko‘rinishini esalatadi, ya’ni nasriy va she’riy qismlardan tarkib topadi. Aynan ana shunday shakliy tanlanish matnshunosning xalqona uslublarga o‘rgangan ommaning dunyoqarashi, ko‘nikilgan shaklga yana murojaat etish ehtiyojining tug‘ilishi va shuning orqali ularning “Xamsa”-ni o‘qib-o‘rganishlari uchun sharoit yaratish mumkinliginiko‘rsatadi. Mazkur ish Sadriddin Ayniyning keng xalq ommasini savodli, mumtoz adabiyotni tushunadigan bilimdon va undagi donoliklardan bahramand bo‘lib, ma’naviy olamini, hayotini yaxshilash sari burishga hozir bo‘la oladigan komil insonlarni ko‘rishga bo‘lgan kuchli intilishlarini, ulkan xalqparvarlik fazilatlarini namoyon etadi.

Sadriddin Ayniy matnshunos olim sifatida Alisher Navoiy ilmiy merosini o‘rganish va keng targ‘ib qilishda ko‘p xizmat qildi. Shu bilan birgalikda o‘z hamyurtlari qadim Buxoro farzandlarining hayoti va ilmiy merosini o‘rganish borasida ham salmoqli ishlarni amalga oshirdi. Bu borada Abu Ali ibn Sino va Abdulloh Ro‘dakiyga bag‘ishlangan tadqiqotlari o‘zining keng qamrovligi bilan ajralib turadi. Jumladan, Ibn Sinoga bag‘ishlangan tadqiqot “Shayxul rais Abu Ali ibn Sino” deb nomlangan bo‘lib, bunda olimning fors-tojik tilida yozilgan ba’zi asarlaridan parchalar ham keltirilgan. Olim dastlab Ibn Sinoning Yevropada Avitsena nomi bilan shuhrat topganligini, to‘liq ismi Husayn binni Abdulloh binni Sino ekanligini, Abu Ali ibn Sino esa uning kuniyasi, Shayxur rais esa ilmiy laqabi ekanligiga urg‘u beradi [Ayniy, 1967: 97]. Ayniy shu o‘rinda kuniya va “Shayxur rais” tushunchalariga ham izoh berib o‘tadi. Ya’ni arab ta’biricha “ab”, “abu”, “abi”, “ibn” bilan boshlanadigan kishi nomlari kuniya deb ataladi. “Shayxur rais” esa “ulug‘, bosh olim” demakdir.

Sadriddin Ayniy bu olimning ilmiy va adabiy faoliyatini yoritish bilan cheklanib qolmay, dastlab Ibn Sino yashagan tarixiy davr va muhitga ham alohida e’tibor qaratadi. Ayni masala tadqiqi uchun bir qancha tarixiy asarlarni ham o‘rganib chiqadi. Sino hayoti haqida gapirishdan oldin u tug‘ilib, faoliyat boshlagan podshohlik – Somoniylar haqida ma’lumot beradi. Hatto, mazkur podshohlikning yuzaga kelish tarixini ham keltirib o‘tadi: “Arablar O‘rta Osiyoni istilo qilgandan ikki yuz yilcha keyin mamlakatning chekka o‘lkalarida Bag‘dod (xalifalik poytaxti)ga tobe’ bo‘lsalar-da, haqiqatda o‘zlariga mustaqil bo‘lgan davlatlar mavjud edi. Shunday davlatlarning eng buyuk, eng qudratli, eng uzoq umr ko‘rganlaridan biri Somoniylar davlati edi” [Ayniy, 1967: 97]. Ayniy tarixchi olim sifatida Somoniylar davlatining asoschi, uning yaratilish tarixini batafsil, manbalar bilan asoslab yoritgan. Ya’ni somoniylar sulolasiga asos solgan hukmdorlarning bobosi – Asad binni Somon Balx forsalaridan bo‘lib, arab voliyarlari tomonidan Movarounnahr va Xurosonning ayrim shaharlariga hokim qilib tayinlanadilar. Jumladan, Nuh binni Asad Samarqandga hokim bo‘ladi. Shu tariqa somoniylar asta-sekin kuchayib, Samarqandni o‘zlariga markaz qiladilar. Ammo Ismoil Somoniy davrida Buxoro poytaxt bo‘ladi va somoniylar 875-yildan to 999-yilgacha Movarounnahrda hukmronlik qiladilar. Somoniylar davrida O‘rta Osiyoning madaniyati g‘oyatda yuksalgan edi. Shu jumladan, milliy til va adabiyot – keyinchalik O‘rta Osiyoda “tojikcha” deb atalgan fors tili va adabiyoti tashkil topdi. Bu davrda Abulhasan Buxoriy, Murod Buxoriy, Daqiqiyalar yetishub chiqdi va ular islomdan keyingi fors-tojik adabiyotining asoschilaridan hisoblanadilar. Ayniy ushbu ma’lumotlarni ham e’tibordan soqit qilmagan. Qolaversa, somoniylar davridagi eng rivojlangan shaharlar, ulardagi madaniy ahvol, savdo va hunarmandchilikka ham alohida to‘xtalib o‘tgan. Bu borada somoniylar sulolasi yuksalgan davrda Buxoro ikkinchi Bag‘dodga aylanganligini, bu yerda har tomondan olimlar kela boshlagani, qolaversa, mahalliy donishmandlar ham yeti-

shib chiqqanligiga urg'u beriladi. Sadriddin Ayniy bu davrda yetishib, shuhrati jahonga tarqalgan mahalliy olimlardan biri sifatida Abu Ali ibn Sinoning nomini keltiradi. Eng e'tiborli jihatlaridan biri shundaki, Ayniy somoniylar davrining so'nggi olimlaridan bo'lgan Abu Ali ibn Sinoning tarjimayi holi bilan o'sha davrning so'nggi shoiri bo'lgan Firdavsiyning tarjimayi holi bir-biriga nihoyatda o'xshashligini misollar asosida isbotlashga harakat qilgan. Biz buni quyidagi jadvalda ifodalaymiz:

1-jadval

T/r	Abulqosim Firdavsiy	Abu Ali ibn Sino
1	Somoniylarning siyosiy raqibi bo'lgan Mahmud G'aznaviy suiqaqdiga duchor bo'ladi	Somoniylarning oxirgi davrida Sulton Mahmudning suiqaqdiga giriftor bo'ladi
2	Yoshi 80 ga borganda, shaharma-shahar qochqin bo'ladi	Abu Ali ibn Sino ham shunday uqubatga uchraydi
3	Qochqinlik davrida Eronning sulton Mahmud qo'liga o'tmagan viloyatlarning mahalliy hokimlaridan yordam ko'radi	Abu Ali ibn Sino ham mahalliy hokimlardan yordam ko'radi va ilmiy ijodini davom ettiradi
4	Sulton Mahmudning Firdavsiyga hujumining sababi diniy masala edi	Abu Ali ibn Sinoga ham hujumining sababi ham ayni shu diniy masala edi.

Sadriddin Ayniy ibn Sino hayoti va faoliyatini manbalar asosida batafsil ifodalashga harakat qilgan. Ayniyning ma'lumotiga ko'ra, uning otasi Abdullo binni Sino Baxlning fozillaridan bo'lib, Nuh binni Mansur Somoniy hukmronligi davrida balxdan Buxoroga kelgan. Podshoh Nuh uni Hurmeton (hozirgi Rometon) tumaniga hokim qilib tayinlaydi. Abdullo Afshona (hozirgi Peshko' tumaniga qarashli, oldin Rometan tumani tarkibida bo'lgan) qishlog'ida o'zi uchun uy-joy qilib, shu yerlik Sitorabonu degan qizga uylangan. 980-yilda ibn Sino ana shu Afshona qishlog'ida tug'lgan. Ayniyning Sino hayot-faoliyatiga e'tibor qaratgan masalalarni quyidagi jadval asosida tizimlashtirish mumkin:

2-jadval

T/r	Yoshi	O'rgangan fanlari	Ustozlari	O'rgangan joyi
1	5	Xat-savod chiqaradi, Qur'onni, til va adabiyotni o'ganadi	Ma'lum emas	Afshona qishlog'i
2	10	Matematika, hisob ilmi	Mahmud Massoh(tanobchi)	Buxoro shahri
3	10	Ilohiyot ilmi	Ismoil Zohid	Buxoro shahri
4	10 yoshdan keyin	Mantiq va hikmat ilmi	Abu Abdullo Bohiliy	Buxoro shahri
5	16 yoshgacha	Mantiq, handasa (geometriya), hikmat, ilohiyot, ilmi nujum (astronomiya), ilmi tib	O'z harakati bilan, mustaqil	Buxoro shahri
6	16 yoshgacha (bir yarim yil davomida)	Qur'oni karimni yod oladi	Ma'lum emas	Buxoro shahri
7	18 yoshida	Zamonasining deyarli barcha ilmlarini o'rganadi	O'z harakati bilan, mustaqil	Buxoro shahri

Sadriddin Ayniyning ma'lumotiga ko'ra, Ibn Sinoning haqiqiy va beshubha tarjimai holini uning yaqin shogirdi va doimiy hamsuhbati bo'lgan Abu Ubayd Faqih Jurjoniy yozgan. U o'z risolasining avvalida Ibn Sinoning otasi, onasi va tug'ilgan joyidan tortib, to Jurjonga kelgunigacha bo'lgan ma'lumotlarning hammasini olimning o'z og'zidan eshitganligini hamda o'zi unga hamroh bo'lganidan keyin to buyuk olim boshidan kechirgan barcha voqealarni birma-bir yozib, o'z asariga tarjimai holni ilova qiladi. Bu risola "Ta'rix hukamo" degan kitobda aynan hikoya qilinadi [Ayniy, 1967: 109].

Sadriddin Ayniy ibn Sinoni 57 yil umr ko'rganini va uning shu davrlarini 3 guruhga ajratadi:

- 1) 18 yili ilmu tahsilga sarf bo'lgan;
- 2) 2 yili otasi vafotining tashvishi va Samoniylar saroyida siyosat bilan shug'ullangan;
- 3) 37 yili sarson-sargardonlikda bo'lishi bilan asarlar yozishga sarflandi.

Ayniy ushbu tadqiqotida Shamsiddin Somiyning "Qomusul a'lam" asarida Ibn Sinoga nibat berilgan asarlar ro'yxatini to'liq keltiradi. Ushbu manbada qayd etilishicha, Ibn Sinoning 77 ta asar yozgan. Ayniy bu asarlarning nomini to'liq keltirish bilan, birga ayrimlarining bir nacha jilddan iborat ekanligini aniq snlari bilan keltirgan. Masalan, "Shifo" asari mantiq, tabiyot hamda ilohiyotga doir bo'lib, 18 jilddan iborat. "Al Qonun" tibbiyotga doir asar bo'lib, 5 jilddan iborat. "Al-hosilu val-mahsul" 20 jild. Ibn Sino sharh xarakteridagi asarlar ham yozgan bo'lib, u "Kitobul-insof" Arastu asarlarining sharhiga bag'ishlangan bo'lib, 20 jilddan iborat. Uning asarlari orasida ilohiyotga ("Munozorot" (ruh haqida), "Tavhid xutbalari", "Qazovu qadar haqida maola"), musiqaga, aruzga, axloqqa bag'ishlangan asarlari ham mavjudki, bu ulug' allomaning qomusiy olimligini ko'rsatuvchi muhim jihatlardan sanaladi. Shamsiddin Somiyning ma'lumotiga ko'ra, bu ro'yxatda yana ibn Sinoning bir qancha arab va fors tilida yozilgan kitoblari kiritilmagan [Ayniy, 1967: 115].

Ma'lumki, O'rta Osiyoda IX-XIV-asrlarda badiiy ijod uch (fors, arab, turkiy) tilda amalga oshirilgan. Bu, albatta, muallifning ixtiyorida bo'lgan. Ammo ilmiy asarlar tili haqida bu fikrni aytib bo'lmaydi. Chunki, ushbu davrlarda yaratiladigan deyarli barcha ilmiy asarlar arab tilida yozilgan. Bu esa, mazkur davrdagi qat'iy an'analardan biri hisoblangan. Shuning uchun XI asrda Mahmud Qoshg'ariy turkiy tilga bag'ishlangan "Devonu lug'otit turk" asarini ham arab tilida yozgan. Ana shu nuqtayi nazardan, Ibn Sinoning ham aksariyat asarlari arab tilida yozilgan. S.Ayniyning ma'lumotiga ko'ra, uning faqat "Donishnoma" va "Risolayi nabz" (Qon tomir risolasi) asarlarini fors tilida yozgan. Qolgan barchasini arab tilida yaratgan.

Ibn Sino qomusiy olim bo'lishi bilan birga, yuksak badiiy mahoratga ega shoir ham edi. U zullisonayn ijodkor sifatida arab va fors tilida ham badiiy asarlar yozgan. Ayniqsa, uning arabcha qasidalari bilan bir qatorda fors tilida yaratilgan qit'alar, ruboiylar va qasidalari mazmun-mohiyati va ifoda uslubi bilan ajralib turadi. S.Ayniyning ma'lumotiga ko'ra, Sinoning ikki asari ("Al-Qonun" va "Donishnoma") hozirgi Dushanbe shahridagi Tojikiston davlat kutubxonasida saqlanadi [Ayniy, 1967: 115]. Shulardan "Al-Qonun" arab tilida yozilgan bo'lib, hajman, ancha salmoqli 888 varaq, 1776 sahifadan iborat bo'lib, 5 qismdan iborat:

- 1) Tib ilmidagi umumiy masalalar;
- 2) oddiy dorilar to'g'risida;
- 3) odam tanasining boshdan-oyoq har bir tashqi va ichki a'zolarida paydo bo'ladigan kasalliklar to'g'risida;
- 4) bir a'zogagina xos bo'lmaydigan ayrim kasalliklar to'g'risida;
- 5) murakkab dorilarni tayyorlash va ularning tarkibi haqida.

Mazkur asar Yevropaning bir qator tillariga tarjima qilingan bo'lib, tanqidchi Nizomiy Aruziy Samarqandiy o'zining "Chor maqola" kitobining 4-qismida tabib uchun zarur bo'lgan 15 kitobning

ro'yxatini keltirib, shunday deydi: "Agar tabib shularning hammasini o'qishdan xalos bo'lmoqchi bo'lsa, "Al-Qonun" ning o'zi kifoya qiladi" [Ayniy, 1967: 117].

Tojikiston davlat kutubxonasida saqlanadigan 2-kitob "Donishnoma" bo'lib, asarning 2-nomi "Donishnomayi Uloiy" dir. Mazkur asar Uloud-davlaga bag'ishlangan bo'lib, Ayniy asar Sino umrining oxirgi yillarida Isfahonda yozilgan bo'lsa kerak, deb taxmin qiladi. Kitob fors-tojik tilida yozilgan bo'lib, besh qismdan iborat. Har bir qismi alohida bir fanga oid bo'lib, ular quyidagilar:

1) Ilmi mantiq (Logika); 2) Tabiyot; 3) Ilmi hay'at (Astronomiya); 4) Musiqa; 5) Ilohiyot.

Ma'lumot sifatida aytish lozimki, mazkur asarning qo'lyozma nusxalaridan biri O'zbekiston davlat kutubxonasida ham saqlanadi. Ammo Tojikiston va O'zbekistonda saqlanayotgan nusxalar ham to'liq emas. Ya'ni ularda kitobning besh qismi to'liq mavjud emas.

Ayniy ushbu asarning ayrim qismlarini joriy yozuvga tabdil qilib, kitobxonlar hukmiga havola qilgan. Ibn Sinoning mazkur asari ham Sharq musulmon madaniyatida shakllangan kito-batchilik an'anasi asosida yozilgan. Ya'ni mazkur an'anaga muvofiq asar hamd, na't boblari bilan boshlangan. So'ng ushbu kitob Uloud-davlaning xohishi bilan yozilganligi bayon etilgan. Muallif asar muqadimasida quyidagicha ma'lumot bergan: "Porsi dariy tilida kitob yozaman, bunda o't-mishdagi olimlarning ilmu hikmatlarini jamlab, besh xil ilmning asosi hamda bahslarni qisqacha bayon etaman. Birinchisi "Ilmi mantiq" bo'lib, u tarozidir, ikkinchisi "Tabiyot" – bunisi his qilib ko'rish mumkin bo'lgan, harakat qiluvchi va o'zgaruvchi jismlar haqidagi fandir; uchinchisi – ilmi hay'at (astronomiya) va olamning asosi, osmonlarning va yulduzlarning harakati va ular haqidagi haqiqatni qanday qilib bilishning ko'rsatishi, to'rtinchisi musiqa ilmi bo'lib, u musiqiy va musiqiy bo'lgan tovushlar va kuy yaratish; beshinchisi – tabiatdan tashqarida bo'lgan narsalar ilmi"dir [Ayniy, 1967: 118].

Ibn Sinoning zehni o'tkirligi, mulohazalarining teranligi, arab va fors tilida kitoblarni oson va tez bitishi haqida xalq orasida, turli tarixiy va ilmiy asarlarda, tazkiralarda ko'plab ma'lumotlar yetib kelgan. Ayniy shularning orasidan faqat Ibn Sino bilan o'n besh yil olimning xizmatida va suhbatida bo'lgan sadoqatli shogirdi Abu Ubayd Faqih Jurjoniy yozib qoldirgan ikki hikoyatga e'tibor qaratadi. Shulardan birida aytilishicha, ibn Sinoning ilmi mantiqqa doir kitobi Sherozga yetib borgan va u yerdagi ba'zi olimlar ushbu asarning ayrim o'rinlaridan shubhalanadilar, va yozib Abdulloh Kirmoniy orqali Ibn Sinoga jo'natadilar. Kirmoniy quyosh botayotgan vaqtda ibn Sinoning oldiga yetib keladi. Olim uni xufton namozigacha mehmon qilib, uni uxlatadi. O'zi esa bomdod namozigacha har biri o'n varaqday bo'lgan besh qism qog'oz javob yozib, Kirmoniyga topshirgan ekan.

Ikkinchi hikoyat shundan iboratki, Uloud-davla huzurida arab tili lug'ati haqida gap ketadi va Ibn Sino lug'at haqida bilganlarini gapiradi. Shunda Isfahon donishmandlaridan bo'lgan Abu Mansur Jabbon ibn Sinoga dedi:

- Ilmu hikmat sohasidagi iqtidoringiz tahsinga loyiq, ammo lug'at ilmi maxsus sohadirki, siz bu sohada hech nima qilmagansiz...

Bu fikr ibn Sinoga qattiq botib, uch yil arab tili lug'ati ustida ishlaydi. Natijada arab tili va adabiyotida shunday natijaga erishadiki, bunday kamolotga kamdan-kam odamlar erishgan. Arab tilida ajoyib lug'atlar ishlatib uch qasida yaratadi: birinchisi. Ibnul Amid uslubida, ikkinchisi As-Sohib uslubida, uchinchisi yana bir boshqa mashhur arab shoiri uslubida va bularning har birini alohida muqovalatib Uloud davlaga topshiradi-da, bularni ov qilib yurib topdim, qanaqa kitobligini ayting? deyishini iltimos qiladi. Abu Mansur bu masala yechimiga ojizlik qiladi, shunda ibn Sinoning o'zi falon kitobda bor, deb aytadi. Shunda Abu Mansur bu kitoblar ibn Sinoga tegishli ekanligini anglaydi va xijolat chekib, uning fazlu kamoliga tan beradi. Shundan keyin Abu Ali ibn

Sino “Lisonul arab” nomli o‘z jildlik bir kitob yozgan, ammo uni oqqa ko‘chirishga ulgurmay, vafot etgan. Afsuski, hech kim bu kitobni oqqa ko‘chirib, tartibga sola olmagan.

Abu Ali ibn Sino – O‘rta Osiyoning qomusiy olimi. Uning faoliyati bilan bog‘liq ma’lumotlar bir qancha tarixiy manbalarda uchraydi. Shular sirasiga, Shamsiddin Somiyning “Qomus ul-a’lam”, Nizomiy Aruziy Samarqandiyning “Chor maqola” kitoblarini, sadoqatli shogirdi Abu Ubayd Faqih Jurjoniyning asarlarida zikr etilgan.

Serqirra faoliyat sohibi bo‘lgan Sadriddin Ayniy badiiy ijod bilan birgalikda ilmiy tadqiqot ishlari bilan ham shug‘ullangan. Ana shunday hajman salmoqli ilmiy tadqiqoti “Shayxul rais Abu Ali ibn Sino” nomli katta sarlavha ostida berilgan bo‘lib, bir qancha kichik mavzuchalarga ham bo‘lingan. Ayniy imkon qadar olimning hayoti, faoliyati, asarlari va u haqida ma’lumot beruvchi manbalar haqidagi mulohazalarni keltiradi. Ayniyning ifoda uslubi aniqligi va ravonligi bilan ajralib turadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Алишер Навоий, 1947. Хамса. Қискартириб нашрга тайёрловчи С.Айний, Тошкент. – 312 б.
2. Айний С., 1967. Асарлар. 8 томлик. 8-том. – Тошкент. – 415 б.
3. Amonova Z., 2024. The teachings of Hurufism and Nasimi’s poetic skills / E3S Web of Conferences. – EDP Sciences, 538. C. 05037.
4. Amonova Z., Axrorova Z., 2024. “Nasoyim ul muhabbat” da Imom G‘azzoliy talqini / Alisher Navo‘i and 21 st century. Toshkent – Bursa, B. 277-281.
5. Amonova Z., To‘rayeva M., 2024. Alisher Navoiy she‘riyatida inson tana a‘zolarining qo‘llanilishi / Alisher Navoiy adabiy va ilmiy merosini o‘rganish masalalari № 69 xalqaro konferensiya materiallari. Toshkent, B. 150-155.
6. Amonova Z., Olimova M., 2022. Huvaydoning yangi topilgan she‘rlari / Oltin bitiglar, 3-son. B. 21-35

ПОЭТИКА ТЕРМИНИНИНГ МАЪНО ҚАМРОВИ ВА ТРАНСФОРМАЦИЯСИ

Дилфуза ХАТАМОВА Абдувахобовна
ЎзМУ докторанти, доцент
xatamovadilfuza73@gmail.com

Аннотация

Ушбу мақолада “поэтика” терминининг генезиси, эволюцияси ва маъно қамровлари ҳамда трансформацияси ўрганилди. Тадқиқот доираси антик ва ўрта асрнинг йирик мутафаккирлари таълимотлари доирасида чегераланди. “Поэтика” терминининг шаклланиши ва тараққиётида Арасту ҳакимнинг “Поэтика (Шеърый санъат)”, Горацийнинг “Пизонларга нома” каби асарларининг ўрни беқиёс эканлиги назарда тутилиб, антик эстетика бу терминларга муносабатда борлиқ ва унинг инъикоси (Арасту таълимотида, ҳаққонийлик ва тўқима)ни асос қилиб олгани кузатилди. Маълумки, Арасту қараишлари унинг устози Афлотун фалсафасига бориб тақалади. Шуни эътиборга олиб, Афлотин таълимотига диққат қаратилди ва унинг миф поэтикасига оид қараишларига асос сифатида ёндошилди. Миф ва мифология билан боғлиқ антик қараишлар Е.Мелетинский талқинлари орқали тушунирилди. Чунки миф поэтикаси шунчаки фольклориуносликка дохил тушунчалар эмас, балки бадий адабиётнинг асосида яшовчи бирламчи борлиқ экани ушбу тадқиқотдан маълум. Айниқса, миф асосида ётган сюжет (Арасту таълимотида фабула) тараққий этиши ва